**XALQ DEPUTATLARI KO'KDALA TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

181214, Ko‘kdala tumani Nurafshon ko‘chasi 47-uy, +998 94 174 3946, Faks: (+99875) 230-14-59, t.kukdala@exat.uz

2026-yil 16-iyul VII-26-80-4-224-K/26 Ko'kdala tumani

**Ko‘kdala tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov narxlari (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Ko‘kdala tumani hokimi o‘rinbosari O‘.Abduraximovning 2026-yil 17-iyundagi 03-03/2090-sonli xati, Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari I.Muxammadiyevning 2026-yil 10-iyul kunidagi 01-01-20-240/10-3806/37-sonli xati va Ko'kdala tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 16-iyun kunidagi № 01/235-sonli xati, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va Ko‘kdala tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha Ko‘kdala tumani hokimi o‘rinbosari O‘.Abduraximovning taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Ko‘kdala tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha tariflar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish

xizmatlari uchun yangi tariflar tasdiqlanganligini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilik hamda tadbirkorlik subyektlari e'tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

4.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Xo'jayev va tuman hokimining o'rinbosari O'.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **KELDIYEV ALLAMUROD BOQIYEVICH**

Xalq deputatlari Ko'kdala tumani
Kengashining
2026-yil 16-iyuldagi
VII-26-80-4-224-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Koʻkdala tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish boʻyicha xizmat koʻrsatish boʻyicha NARXLARI (tariflari)**

| **Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar** | **Tip, marka, artikul yoki model raqam** | **Oʻlchov birligi** | **Tarif miqdori (soʻm) (QQS bilan)** |
|---|---|---|---|
| Yuridik shaxslar uchun | Maishiy chiqindilar | $m^3$ | 96 628,0 |
| Yuridik shaxslar uchun | Obodonlashtirish | $m^2$ | 3 000,0 |